

**ZAIF HADISLARNING TURLARI VA ULARNING AHAMIYATI**

*Sadirova Mubina Shavkatjon qizi*  
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik*  
*akademiyasi Islomshunoslik fakulteti*  
*Islomshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi*  
*Telefon raqam: +998990392601*

*Ilmiy rahbar: O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*  
*"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish*  
*ICESCO" kafedrasini mudiri **Muhabbat Agzamova***

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zaif hadislarning mohiyati, ularning istilohiy ta'rifi va asosiy turlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mu'allaq, mursal, mu'zal, munqote', mudallas, mavzu, matruk, munkar, mudraj, maqlub, muztarib, musahhaf, muharraf, shoz va muallal kabi zaif hadis turlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning isnod va matndagi nuqsonlar bilan bog'liqligi yoritiladi.

**Kalit so'zlar.** zaif hadis, munqote', mudallas, mu'zal, mursal, muharraf, shoz, musahhaf, muztarib muallal, matruk, munkar.

**Аннотация.** В данной статье научно-теоретически анализируются сущность слабых хадисов, их терминологическое определение и основные виды. В исследовании раскрываются специфические особенности таких видов слабых хадисов, как му'аллак, мурсаль, му'заль, мунқати', мудаллас, мауду', матрук, мункар, мудрадж, маклуб, музтариб, мусаххаф, мухарраф, шазз и му'алляль, а также их связь с недостатками в иснаде и тексте.

**Ключевые слова.** слабый хадис, мунқати', мудаллас, му'заль, мурсаль, мухарраф, шазз, мусаххаф, музтариб, му'алляль, матрук, мункар.

**Annotation.** This article provides a scientific and theoretical analysis of the nature of weak hadiths, their terminological definition, and their main types. The study examines the distinctive features of such categories of weak hadiths as mu'allaq, mursal, mu'zal, munqati', mudallas, mawdu', matruk, munkar, mudraj, maqlub, muztarib, musahhaf, muharraf, shadh, and mu'allal, as well as their relation to defects in the isnad (chain of transmission) and the matn (text).

**Keywords.** weak hadith, munqati', mudallas, mu'zal, mursal, muharraf, shadh, musahhaf, muztarib, mu'allal, matruk, munkar.

Musulmon olimlari hadislarni to'plash va ularni saralab, ishonchlilik darajasini belgilashda butun insoniyat tarixida misli ko'rilmagan darajada puxta va tizimli metodologiyani ishlab chiqdilar. Aynan shu metodologiya doirasida rivoyatlar sahih, hasan va zaif kabi ilmiy toifalarga bo'lindi. Zaif hadislar masalasi esa bu sohadagi eng

murakkab va ko'p qirrali mavzulardan biri bo'lib, u asrlar davomida islom olimlari o'rtasida keng ilmiy munozaralarga sabab bo'lgan. Zaif hadis roviylar zanjiri yoki matn jihatidan sahih va hasan hadisga qo'yiladigan shartlardan birini yoki bir nechtasini topilmasiligi hisoblanib, to'qima darajasiga tushmagan rivoyatlar hisoblanadi. Bu ta'rif oddiy ko'rinsada, zaif hadislarning ichki tuzilishi, turlari va ularning bir-biridan farqlanishi son-sanoqsiz nozik ilmiy mezonlarni talab qiladi. Zaif hadislarning ilmiy tasnifi roviylar zanjirida yuzaga keladigan turli xil nuqsonlarni isnod zanjiridagi uzilishlarni, roviyning ishonchliligi va yodlash qobiliyatiga oid kamchiliklar, matn ichiga kiritilgan begona so'zlar yoki ataylab yashirilgan nuqsonlarni aniq belgilangan atamalar orqali ifodalaydigan mukammal tizimni tashkil etadi.

Zaif hadislarning muallaq, mursal, mu'zal, munqote', mudallas, mavzu, matruk, munkar, mudraj, maqlub, muztarib, musahhaf va muharraf, shoz, muallal, kabi turlari mavjud hisoblanadi.

1) "*Mu'allaq*" lug'atda "allaqa" fe'lidan olingan bo'lib, "bir narsani ikkinchisiga bog'lab, osib qo'yish" ma'nosini bildiradi. Bu sanadning "muallaq" nomi bilan nomlanishining sababi shuki u faqat yuqori tarafdin ilashgan. Bu huddi pasti yerda turmay, shiftda osilib turgan narsaga o'xshab qoladi. Shuning uchun "muallaq" deyiladi.

Istilohda esa mu'allaq – sanadning boshidan bir yoki bir nechta roviyning tushib qolgan bo'lishidir, bittami yoki bir nechta roviy tushganmi baribir mu'allaq deyiladi<sup>1</sup>.

Ibn Solah o'zining "Muqaddimatu fi ulum al-hadis" kitobida mu'allaqga "Sanadning avvalida bitta yoki undan ko'p roviy ketma-ket tushirib qoldirilgan bo'lsa, "muallaq hadis" deb ataladi", – deya ta'rif bergan<sup>2</sup>. Uning bir necha ko'rinishlari mavjud: a) sanadning hammasi tushiriladi-da, so'ng "Rasululloh (s.a.v) shunday dedilar" deyiladi. b) sanaddan faqat sahobiy yoki sahobiy bilan tobeiyni ham qoldiriladi. c) muhaddis o'zidan eshitgan roviyini (shayxini) tushirib qoldiradi va hadisini o'zidan yuqoriroq kishiga nisbat beradi. Agar bu yuqoriroq kishi muallifning shayxi bo'lsa, bu holat "ta'liq" (muallaq) deyiladimi yoki yo'q bu masalada ulamolar ixtilof qilganlar<sup>3</sup>.

2) "*Mursal*" so'zi lug'atda, "arsala" fe'lidan olingan. U "qo'yib yuborilgan" degan ma'noni anglatadi. Mursal hadisni rivoyat qiluvchi kishi uning sanadini ma'lum bir roviyga bog'lamasdan, qo'yib yuborgani kabi bo'ladi. Istilohda esa mursal – sanadning oxiridan tobeiynidan keyin birorta roviy tushib qolgan hadis hisoblanadi.

<sup>1</sup> Ibn Hajar Asqaloni, Nuzhatu an-nazar fi tavziyhi nuxbatu al-fikar fi mustalahi ahli al-asar. – Karachi-Pakistan: Maktabatu al-bushro, 2011. – B. 76.

<sup>2</sup> Muhammad Tahhon, Taysir mustalah al-hadis. – Quvayt: Maktabatu al-haramayn, 2002. – B. 84.

<sup>3</sup> Ibn Hajar Asqaloni, Nuzhatu an-nazar fi tavziyhi nuxbatu al-fikar fi mustalahi ahli al-asar. – Karachi-Pakistan: "Maktabatu al-Bushro", 2011. – 77. b.

Boshqa bir ta'rifda “Tobeiy sahobiyni zikr qilmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Rasululloh (s.a.v) ga ko‘targan hadis mursaldir”, – deyilgan.<sup>4</sup>

Fiqh va usul ulamolari nazdida, bularning barchasi “mursal” deb ataladi. Shu fikrni Abu Bakr al-Hatib va boshqalar ham qo‘llagan, “Ko‘pchilik ishlatilishiga ko‘ra, mursal odatda tobein tomonidan Rasululloh (s.a.v) dan rivoyat qilinadi, tobein tomonidan tobein rivoyat esa mu‘zal deyiladi” deb hisoblashadi.<sup>5</sup> Unda tobein katta yoki kichik bo‘ladimi, rivoyat “Rasululloh (s.a.v) bunday dedilar”, “unday qildilar”, “u kishining huzurlarida bunday ish qilindi” kabi ko‘rinishlarda keladi. Muhaddislarning nazdida mursal hadisning ko‘rinishi shunday bo‘ladi.

3) “*Mu‘zal*” so‘zi lug‘atda “azola” fe‘lidan olingan bo‘lib, “charchatgan”, “og‘ir kelgan” ma‘nosini anglatadi. Istilohda esa sanadidan ikki va undan ortiq roviy ketma-ket tushib qolgan hadis “mu‘zal hadis” deyiladi.<sup>6</sup> Mu‘zal munqote‘ning o‘ziga xos bir turi uchun qo‘llanadigan atama hisoblanib, har bir mu‘zal munqote‘ bo‘la oladi, ammo har bir munqote‘ mu‘zal emas degan qarshdagilar ham mavjud. Ba‘zi olimlar esa uni mursal deb ataydilar.<sup>7</sup>

“Mu‘zal” bilan “muallaq” bir-biriga o‘xshasada, ularning orasida farq mavjud bo‘lib, bu haqida Ibn Hajar Asqaloniy “Agar isnodning boshidan ketma-ket ikkita roviy tushib qolgan bo‘lsa, hadis bir vaqtning o‘zida ham “mu‘zal” ham “muallaq” bo‘ladi. Ammo isnodning o‘rtasidan ikkita roviy ketma-ket tushib qolsa, hadis faqat “mu‘zal” bo‘ladi, “muallaq” bo‘lmaydi. Isnodning boshidan faqat bir roviy tushib qolsa, bu hadis “muallaq” bo‘ladi, “mu‘zal” bo‘lmaydi. Mu‘zal zaif hadis bo‘lib isnodda ikkitadan ko‘p roviyning tushib qolganligi tufayli, u mursal bilan munqate‘dan ham darajasi past hisoblanadi”<sup>8</sup>, – deya ta’kidlagan.

4) “*Munqote*” so‘zi lug‘atda “inqoto‘a” fe‘lidan olingan bo‘lib, “bog‘langan” so‘zining aksi “kesilgan” ma‘nosini anglatadi. Istilohda esa: sanadi muttasil bo‘lmagan, orada uzilishi bor hadis “munqote” deyiladi.

Sanad qaysi joyda kesilsa, hadis “munqote” deb aytilaveradi. Shu e‘tibordan mursal, muallaq, mu‘zal hadislarini ham “munqote’ hadis” deb nomlasa bo‘laveradi. “Mustalahul hadis” ilmining keying davr ulamolari “Munqote’ hadisning mursal, muallaq, mu‘zal shartlariga to‘g‘ri kelmagan ko‘rinishlarinigina “munqote” deb nomlaymiz”, – deganlar. Buni ulumul hadis ulamolarning avvalgilari ham aytishgan. Imom Navaviy “Rivoyat sanadidan sahobiy va tobe‘indan keyin kelgan roviy tushib qolgan bo‘lsa, hadis munqote’ bo‘ladi”, – deb aytganlar.

<sup>4</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mustalahul Hadis. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021. – B.147.

<sup>5</sup> Ibn Solah, Muqoddimatul ibn Solah fi ulum al-hadis. – Bayrut: Dar al-fikr, 2009. – B. 52.

<sup>6</sup> Ibn Hajar Asqaloniy, Nuzhatu an-nazar fi tavziyhi nuxbatu al-fikar fi mustalahi ahli al-asar. – Karachi: Maktabatu al-bushro, 2011. – B. 92.

<sup>7</sup> Ibn Solah, Muqoddimatul ibn Solah fi ulum al-hadis. – Bayrut: Dar al-fikr, 2009. – B. 59.

<sup>8</sup> Ibn Hajar Asqaloniy, Nuzhatu an-nazar fi tavziyhi nuxbatu al-fikar fi mustalahi ahli al-asar. – Karachi-Pakistan: Maktabatu al-bushro, 2011. – B. 76.

Sanaddagi uzilish sanadning bir joyida yoki birdan ko'p o'rnida bo'lishi ham mumkin. Misol uchun, uzilish bitta sanadning ikki yoki uch o'rnida bo'lishi mumkin. Munqote' hadisda ba'zi roviylar (رجل), yoki (شيخ), yoki shunga o'xshash umumiy, noaniq lafzlar bilan zikr qilingan bo'ladi.<sup>9</sup>

5) “Mudallas” so‘zi lug‘atda “tadlis” masdaridan olingan bo‘lib, “tadlis” so‘zi savdo molining aybini xaridordan berkitish degan ma‘noni anglatadi. “Tadlis” so‘zi aslida “dalasa”dan olingan, zulmat yoki qorong‘ulikning aralashib ketishi hisoblanadi. Bu ma‘no Feruzobodiyning “Qomusul muhit” kitobida aytilgan.<sup>10</sup> “Mudallas hadis” deganda “hadisni rivoyat qiluvchi shaxs uning ishini zulmatga qo‘ydi” degan ma‘no tushuniladi, ya‘ni berkitib, qorong‘ulikga qo‘ydi. Istilohda esa: “mudallas” – sanaddagi aybi maxfiy tutilgan va sirtdan ko‘rinishini yaxshilashga urinilgan hadis hisoblanadi. Tadlis ikki qismdan iborat bo‘lib, *birinchisi* isnoddagi tadlis – roviy o‘zi uchrashgan kishidan eshitmagan narsani, go‘yo uni undan eshitgandek tasavvur uyg‘otgan holda rivoyat qiladi yoki zamondoshi bo‘lgan, ammo uchrashmagan kishidan, go‘yo u bilan uchrashgandek taassurot qoldirgan holatda rivoyat qiladi. Bu holatda ularning orasida zikr qilinmay qolgan roviylar bir kishi va undan ko‘proq bo‘lishi ham mumkin. Tadlis qiladigan roviyning odati “قال فلان أو عن فلان” yoki shunga o‘xshash majhul, umumiy lafzlarni ishlatadi”<sup>11</sup>.

“Tasviya tadlisi” ham mavjud bo‘lib u lug‘atda “tekislash”, “rostlash” va “barobarlashtirish” ma‘nolarini anglatib, bu tur sanadning tadlisi turlaridan biri hisoblanadi. Istilohda “Tasviya tadlisi” roviyning o‘z shayxidan rivoyat qilishi jarayonida bir-biri bilan uchrashgan ikki ishonchli roviy orasidagi zaif roviyni tushirib qoldirishidan iborat bo‘ladi. Roviylar ishonchli shayxdan bir hadisni rivoyat qiladi. Mazkur ishonchli kishi zaif roviydan rivoyat qilingan bo‘ladi. O‘sha zaif roviy ishonchli roviydan rivoyat qilgan bo‘ladi. Shu ikki ishonchli roviylar bir-birlari bilan uchrashgan odamlar bo‘ladi, mudallis kelib, “Hadisni birinchi ishonchli odamdan eshitganman”, – deb aytadi. Keyin sanaddan zaifni tushirib yuborib, sanadni ishonchli shayxga ulab ketadi. Ulab ikki ishonchlining orasidan bitta zaifni tushirib qoldiradi. Sanaddagi roviylarning barchasi ishonchli ekanini ifoda qiluvchi lafzni ishlatib, “faqat ishonchli roviylar rivoyat qilgan ekan” degan holga keltirib qo‘yadi<sup>12</sup>. Tadlisning shu ko‘rinishi eng yomon tur hisoblanadi. Iroqiy bu haqida “Kim uni qasddan qilsa, uning adolatiga putur yetadi”, – degan<sup>13</sup>. *Ikkinchisi* roviy o‘z shayxidan eshitgan hadisni rivoyat qiladi, uni shunday nomlaydiki, kunyasi bilan yoki nasabini boshqacha

<sup>9</sup> Ibn Hajar Asqaloni, Nuzhatu an-nazar fi tavziyhi nuxbatu al-fikar fi mustalahi ahli al-asar. – Karachi-Pakistan: “Maktabatu al-Bushro”, 2011. – B. 79.

<sup>10</sup> Muhammad ibn Yaqub Feruzobodiy, al-Qomus al-Muhit. – Qohira: Dar al-Hadis al-Qohira, 2008. – B 557.

<sup>11</sup> Ibn Solah, Muqoddimatu ibn Solah fi ulum al-hadis. – Bayrut: Dar al-fikr, 2009. – B. 98.

<sup>12</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mustalahul Hadis. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021. – B.161.

<sup>13</sup> Muhammad Tahhon, Taysir mustalah al-hadis. – Quvayt: Maktabatu al-haramayn, 2002. – B. 102.

keltiradi yoki uni odatda tanilmaydigan sifat bilan tavsiflaydi, natijada u shaxs tanilmay qoladi<sup>14</sup>. Tadlislar ichida karohiyati kamrog'i shunisi hisoblanadi.

6) “*Mavzu*” so‘zi lug‘atda “bir narsani qo‘ydi”, “pastlatdi”, “tushirdi”, “to‘qidi” ma‘nolarini bildiradi. “Mustalahul hadis” ulamolarning ta‘rifida “Mavzu’ – to‘qilgan yolg‘on bo‘lib, Rasululloh (s.a.v) ga nisbat berilgan xabar hisoblanadi”<sup>15</sup>.

Mavzu hadis zaif hadislarning eng yomoni hisoblanadi. Ba‘zi ulamolardan “mavzu”ning o‘zi alohida mustaqil qismdan iborat, uni zaif hadislar qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi”, – deganlari ham mavjud.

7) “*Matruk*” lug‘atda “tark” masdaridan olingan bo‘lib, “tark qilingan” ma‘nosini bildiradi. Arablar tuxumning jo‘ja yorib chiqqandan keyin qolgan qismini “at-tarika” – “tark qilingan”, “tashlab ketilgan” deb ataydilar. Matruk hadis xuddi shunday tark qilinadigan xabar hisoblanadi. Ulamolarning istilohida sanadida yolg‘onchilikda gumon qilingan roviysi bor hadisga matruk hadis deyiladi”<sup>16</sup>.

8) “*Munkar*” so‘zi lug‘atda “inkor” masdaridan olingan bo‘lib, “iqrar”ning ziddi, ya‘ni “inkor qilingan” ma‘nosini bildiradi. Hadis ilm ulamolari munkar hadisning bir necha ta‘riflarini aytib o‘tganlar. Ana shu ta‘riflardan ikkitasi eng mashhurlari hisoblanadi. Birinchi ta‘rif – sanadida katta xatosi bo‘lgan yoki g‘aflati ko‘paygan yoxud fisqi zohir bo‘lgan roviy bor hadis “munkar” deyiladi. Bu ta‘rifni hofiz Ibn Hajar Asqaloni aytgan va bu gapni undan boshqalar ham aytganini ta‘kidlagan. Ikkinchi ta‘rif– ishonchli roviyga xilof ravishda zaif roviy rivoyat qilgan hadis “munkar” deb ataladi. Bu ta‘rifni ham Hofiz Ibn Hajar Asqaloni zikr qilib, “Mana shu kuchli gap”, – deya ta‘kidlagan. Ikkinchi ta‘rifda birinchi ta‘rifga qo‘shimcha bo‘lib, “zaif”ning “ishonchli roviy”ga xilof qilishi hisoblanadi.

Munkar ikki qismga bo‘linib, 1) ishonchli roviylarning rivoyatiga xilof bo‘lgan yolg‘iz rivoyat (al-mufrad al-muxolif li-rivayati as-siqot) 2) roviylari yolg‘iz o‘zi rivoyat qilgan, lekin u roviyning ishonchliligi yakka rivoyatni ko‘tara oladigan darajada mustahkam bo‘lmagan fard hadis sanaladi<sup>17</sup>.

9) “*Mudraj*” lug‘atda “adrojtu” fe‘lidan olingan bo‘lib, “ichiga kiritish” va “qo‘shib yuborish” ma‘nosini anglatadi. Istilohda esa isnodning siyoqi o‘zgartirilgan yoki matniga o‘zidan bo‘lmagan narsa (undan emasligi ko‘rsatilmagan) kiritilgan hadisga aytiladi<sup>18</sup>.

Mudraj ikki qismdan iborat 1) Isnoddagi mudraj (mudraj al-isnod) - isnodning tartibida o‘zgarishi bo‘lgan holat hisoblanib, bunda roviy isnodni zikr qila turib, nima sababdandir o‘zidan biror so‘zni qo‘shib yuboradi, boshqalar esa uni ushbu isnodning

<sup>14</sup> Ibn Solah, Muqoddimatu ibn Solah fi ulum al-hadis. – Bayrut: Dar al-fikr, 2009. – B. 74.

<sup>15</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mustalahul Hadis. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021. – B.174.

<sup>16</sup> Muhammad Tahhon. Taysir Mustalah al-Hadis. – Quvayt: Maktabatu al-haramayn, 2002. – B. 117.

<sup>17</sup> Jaloliddin Suyutiy. Tadrib ar-roviy fi sharh taqrib an-Navaviy. – J.I. – Ar-Riyod: Maktabatu al-kavsar, 1994. – B. 276.

<sup>18</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mustalahul Hadis. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021. – B.202.

matni deb o'yladilar va shunday holda rivoyat qiladilar. Buni ham bir necha a) bir roviyning ikkita hadisining sanadini birlashtirib, ularni bir hadis sifatida naql qilinishi, b) roviyning musnad hadisni boshqa bir hadisga kiritib yuborishi, c) bir matnning sanadidagi ixtiloflarni bir joyga jamlab, bir hadis isnodi sifatida rivoyat qilishi, d) muhaddis hadis isnodini aytgach, matnni rivoyat qilmay, o'zining so'zini aytishi va eshituvchilardan ba'zilarining buni hadis deb o'ylashi natijasi kabi ko'rinishlari mavjud hisoblanadi.

“Matndagi mudraj” (“mudraj al-isnod”) – hadis matnida bo'lmagan so'zning kirib qolishiga aytiladi. Ba'zi manbalarda unga “mavqufning marfu'ga biror qaydsiz qo'shib yuborilishi” deb ta'rif berilgan.

Matndagi mudraj uch qismdan a) mudraj hadisning avvalida bo'ladi

b) mudraj hadisning o'rtasida bo'ladi.

c) mudraj hadis matnining oxirida bo'ladi.

10) “*Maqlub*” lug'atda “al-qolb” so'zidan olingan bo'lib, o'zgargan”, “o'girilgan” ma'nosini bildiradi. Muhaddislar istilohida esa hadis sanadida yoki matnida bir lafzning o'rniga boshqasini keltirish, oldinga yoki oxiriga surib qo'yish va shunga o'xshash ishlar “maqlub” deyiladi.

Maqlub ikki qismga bo'linadi:

1) Sanaddagi maqlub ya'ni maqlub as-sanad. Bunda almashtirish hadisning sanadida bo'ladi va buni ham ikki ko'rinishi mavjud. A) bir roviyning ismini undan keyingi ism bilan yoki otasining ismi bilan o'rni almashtirilishi; Masalan, Ka'b ibn Murrani bir roviy Murra ibn Ka'b deb o'zgartirib rivoyat qiladi. B) roviy bir shaxsni boshqasi bilan almashtirib qo'yish, bu hadisni nodirlashtirish maqsadida qilinadi. Masalan, Solimning o'rniga Nofe' deb. Hadisni maqlub qilgan roviy “hadis o'g'risi” deyiladi.

2) Matndagi maqlub ya'ni maqlub al-matn. Bunda hadisning matnida almashtirish sodir bo'ladi va bu ham ikki ko'rinishga ega. A) roviy hadis matnidan ba'zisini orqaga ba'zisini oldinga suradi. Masalan, Imom Muslim rivoyat qilgan “o'ng qo'li bergan sadaqani chap qo'li bilmaydi” degan hadisni “chap qo'li bergan sadaqani o'ng qo'li bilmaydi”, – deb o'zgartirilgan. B) roviy bir hadis isnodini boshqa hadisning matniga almashtiradi, buning matnini esa avvalgisining isnodiga qo'yib rivoyat qiladi. Bu shakl odatda muhaddislarni imtihon qilishga foydalaniladi. Bunga Bag'dodda Imom Buxoriyni imtihon qilganlari misol bo'ladi.

11) “*Muztarib*” so'zi lug'atda “iztirob” masdaridan olingan bo'lib, “betoqatlik”, “beqarorlik”, “notinchlik” “bezovtalik” kabi ma'nolarni bildiradi. Istilohda: “Turli yo'llar ila rivoyat qilingan va quvvati teng bo'lgan hadis muztarib sanaladi”<sup>19</sup>.

<sup>19</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mustalahul Hadis. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021. – B. 219.

Muztarib hadis muztariblik bo'lgan o'rni nuqtai nazardan ikki qismga bo'linadi: 1) Sanadi muztarib (muztarib as-sanad). Bunda sanaddagi roviylarni bir-biriga muvofiqlashtirib bo'lmaydigan turli rivoyat yo'llari bilan kelgan, ularni birini kuchli, ikkinchisini kuchsiz deb bo'lmaydigan hadis hisoblanadi. 2) Matni muztarib (muztarib al-matn). Bunda bir hadis matni bir-biriga zid va muvofiqlashtirib bo'lmaydigan holda rivoyat qilinib, qaysi biri to'g'ri ekanini aniqlashning iloji bo'lmagan hadis sanaladi.

12) “*Musahhaf*” so‘zi “tas’hif” masdaridan olingan bo‘lib, “sahifadagi xato” ma’nosini bildiradi. Istilohda esa: “hadisdagi ishonchli roviylar rivoyat qilgan bir so‘zning lafzini yoki ma’nosini almashtirib qo‘yishdir”. Hofiz ibn Hajar Asqaloni: “bunda o‘zgarish harfning nuqtalarida bo‘ladi” deb ta’kidlab o‘tgan. Muharrafda esa o‘zgarish harfning shaklida bo‘ladi. Xatning shakli turaveradi, ammo harfning harakatlari boshqacha yozilib qoladi.

13) “*Shoz*” so‘zi lug‘atda “shazza” fe’lidan olingan bo‘lib, “yakkalandi”, “yolg‘izlandi” ma’nolarini bildiradi. Istilohda esa: “hadisi maqbul bo‘lgan odam o‘zidan yaxshiroq roviyga muxolif ravishda rivoyat qilgan hadis shoz hadis” deyiladi.

14) “*Muallal*” so‘zi lug‘atda “uni falon narsa sababli illatli qildi” – degan ma’noni anglatadi. Istilohda esa sirdan qaralganda illati bilinmaydigan, lekin sahifligiga putur yetkazadigan illati topilgan hadis muallal deyiladi<sup>20</sup>.

Zaif hadislarni o‘rganish bir necha jihatdan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu hadislarni aniqlash jarayonining o‘zi hadis ilmining qanchalik chuqur va puxta ekanligini ko‘rsatadi. Biror rivoyatni zaif deb belgilash uchun roviylarning hayoti, xotirasi, axloqi va ishonchliligi batafsil o‘rganilishi, isnod zanjirining har bir bo‘g‘ini sinchiklab tekshirilishi lozim. Bu “ilm al-jarh va al-ta’dil” sohasining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Zaif hadislarning turlarini bilish, mavzu ya’ni to‘qima hadisni zaif hadisdan farqlash imkonini beradi. Bu farq muhim hisoblanib, mavzu hadis qat’iyan rad etiladigan soxta rivoyat bo‘lsa, zaif hadis muayyan shartlar ostida amallar fazilati masalasida ehtiyotkorlik bilan qo‘llanilishi mumkin. Jumhur ulamolar zaif hadisdan foydalanish uchun uning mutlaqo soxta bo‘lmashligi, mazmunini tasdiqlovchi sahif dalil mavjud bo‘lishi va undan fiqhiy hukm chiqarilmasligi shartlarini qo‘yganlar. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, zaif hadislarni o‘rganish bu shunchaki nuqsonli rivoyatlar ro‘yxatini bilish emas, Islom ilmiy tafakkurining kengligini, hadis metodologiyasining nozikligini anglab yetish hisoblanadi.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar**

1. Jaloliddin Suyutiy. Tadrib ar-roviy fi sharh taqrib an-Navaviy. – J.I. – Ar-Riyod: Maktabatu al-kavsar, 1994.
2. Ibn Hajar Asqaloni, Nuzhatu an-nazar fi tavziyhi nuxbatu al-fikar fi mustalahi ahli al-asar. – Karachi: Maktabatu al-bushro, 2011.

<sup>20</sup> Muhammad Tahhon, Taysir Mustalah al-Hadis. – Quvayt: Maktabatu al-haramayn, 2002. – B.123-125.

3. Muhammad ibn Yaqub Feruzobodiy, al-Qomus al-muhit. – Qohira: Dar al-hadis al-Qohira, 2008.
4. Imom Navaviy, Taqrib vat-Taysir. – Urdun: Dar ul-asariyya, 2008.
5. Imom Jaloliddin Suyutiy, Tadrib ar-roviy fi sharh taqrib an-Navaviy. – Ar-Riyoz: Maktabatu al-kavsar, 1994.
6. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mustalahul Hadis. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021.
7. Ibn Solah, Muqoddimatu Ibn Solah fi Ulum al-Hadis. – Bayrut, Dar al-fikr, 2009.
8. Muhammad Avvoma. Zaif hadisga amal qilishning hukmi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021.
9. Muhammad Tahhon, Taysir Mustalah al-Hadis. – Quvayt: Maktabatu al-haramayn, 2002.